

**IJARA SHARTNOMASI**

Farg'ona shahri

1-4 -son"10" 01 2022 yil

"O'zbekiston MET" AJ "Farg'ona MET" filiali (keyingi o'rinlarda "Ijaraga beruvchi" deb yuritiladi) direktori nomidan 30.12.2019 yildagi DI-01-01/543-sonli ishonchnoma asosida ish yurituvchi G'.A.Shermatov bir tomondan va "Rubicon Wireless Communication" QK MChJ (keyingi o'rinlarda "Ijaraga oluvchi" deb yuritiladi) Nizomi asosida bosh direktori v.b. Patapatov E.M. ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

**1. SHARTNOMA PREDMETI**

1.1. Mazkur shartnomaga muvofik "Ijaraga beruvchi" "Ijaraga oluvchi"ga mobil aloqa qurilmasi va antenna (trubostoek) o'rnatish uchun 11.55 kv.m maydonini ijaraga berish, "Ijaraga oluvchi" esa bu xizmat uchun belgilangan muddatlarda ushbu shartnomaning 2 bandiga asosan xaq to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Ijaraga beriladigan maydon joylashgan manzil: **Farg'ona shaxri, Mustaqillik ko'chasi 3 a uy.**

Ushbu shartnomaga quyidagi xujjatlar ilova qilinadi:

Ilova №1 - Ijara summasi xisob-kitobi

**2. IJARA XAQI VA XISOB-KITOB QILISH TARTIBI**

2.1. "Ijaraga oluvchi" xar oylik to'lovni bazaviy hisoblash miqdorining 2.7 baravari miqdorida QQS bilan 729 000 (Etti yuzi yigirma to'qqiz ming) so'm, shuningdek, "Ijaraga beruvchi" taqdim qilgan to'lov uchun xisob (schet-faktura)ga asosan joriy oyning 15 sanasidan kechiktirmay to'lovni amalga oshiradi.

2.2. "Ijaraga oluvchi" shartnoma imzolangandan keyin 20 bank kuni ichida birinchi to'lovni amalga oshiradi.

2.3. Bazaviy hisoblash miqdori o'zgarganda to'lov miqdori o'zgargan vaqtdan qayta hisob-kitob qilinadi.

**3. OB'EKTNI TOPSHIRISH-QABUL QILISH TARTIBI**

3.1. 1.2-bandda ko'rsatilgan maydon "Ijaraga beruvchi"ning xususiy mulki hisoblanib, garovda va ta'qiqda emasligi kafolatlaydi.

3.2. Ob'ekt ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab 3 (uch) kalendar kun ichida tomonlar vakolatli vakillari tomonidan imzolangan topshirish dalolatnomasi yoki boshqa topshirish xujjati bo'yicha "Ijaraga oluvchi"ga topshirilishi kerak.

**4. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI XAL QILISH**

4.1. "Ijaraga oluvchi" tulovni kechiktiriligi uchun to'lovi kechiktirilgan xar bir kun uchun qarzdorlik summasining 0.4 foiz miqdorida, lekin to'lovi kechiktirilgan summaning 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

4.5. Taraflar o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va boshqa qonun xujjatlari xamda mazkur shartnomaga muvofiq javobgar bo'ladilar.

4.6. Taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar taraflarning o'zaro kelishuvi asosida xal etiladi. Taraflar kelishuvga erishmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarining uzgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bulishi, tugatilishi va xakikiyligi yuzasidan



kelib chikuvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar javobgar joylashgan Iktisodiy sudida xal etiladi.

## 5. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTEAR

5.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy xarakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

5.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi buyicha xamkorlikni ta'minlaydilar.

5.3. Xar bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabalar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yul qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da kilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki xar qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi xarakatlarni amalga oshirishi mumkinligi xakida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi.

Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi xarakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

5.4. Taraflar davlat xizmatchilari, siyosiy partiyalar, shuningdek o'zining ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan xar qanday vaqt va shaklda quyidagi xarakatlarni bevosita yoki bilvosita (shu jumladan, uchinchi shaxslar orqali) sodir etilishiga yul qo'ymaydi:

a) nazorat qiluvchi organlardan lisenziya va ruxsatnomalar olish, soliq solish, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish, sudda ish qo'rilishi, qonunchilik jarayoni va boshqa soxalarda qonunga xilof ravishda tijorat yoki boshqa tUSDagi ustunlikka ega bo'lish yoki saqlab qolish maqsadida yuqoridagi shaxslar foydasiga yoki ular tomonidan moddiy yoki nomoddiy naf olishning taklif etilishi, va'da qilinishi, berilishiga;

b) qonunga xilof ravishda olingan daromadlarning legallashtirilishiga, shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatdan olingan daromad ekanligi taraflarga ma'lum bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan xaqiqiy egalik xuquqlarini yoki uning kimga qarashliligini yashirishga;

v) korrupsiyaga oid xuquqbuzarlik sodir qilish uchun ta'magirlik qilish, undash, tazyiq o'tkazish yoki taxdid qilish. Ushbu xolat buyicha bir taraf ikkinchi tarafni xamda vakolatli davlat organlarini darxol xabardor qilishi shart,

5.5. Taraflar tovarlar, xizmat va ishlarni realizasiya qilish va o'tkazishda, bitimlar tuzish buyicha muzokaralar olib borishda, lisenziya, ruxsatnomalar va boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega bo'lgan xujjatlarni olishda yoki ularning manfaatlarini ko'zlab boshqa xarakatlarni amalga oshiruvchi taraflarning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan xarakat qiladigan shaxslarga (shu jumladan, yordamchi pudratchilar, agentlar, savdo vakillari, distribg'yuterlar, xuquqshunoslar, xisobchilar, ular nomidan xarakat qiluvchi boshqa vakillarga) nisbatan quyidagi xarakatlarni amalga oshirishi shart:

- korrupsiyaviy xarakatlarga yul qo'yib bo'lmasligi va korrupsiyaviy xarakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi shartligi xaqida ko'rsatmalar va tushuntirishlar berish;
- ulardan korrupsiyaviy xarakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmaslik;
- ularni fakat tarafning oddiy kundalik faoliyati jarayonidagi ishlab chiqarish zarurati doirasidan kelib chiqib ishga jalb qilish;
- ularga qonunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan xaq miqdoridan asossiz ravishda ortiqcha to'lovlarni amalga oshirmaslik.